


# TASHQI SAVDO AYLANMASI

2018 yil yanvar-sentyabr

**Toshkent shahrining** tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida 7226,7 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 2110,1 mln. AQSh dollarini va import 5116,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi – 3006,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.


**Tashqi savdo tovar aylanmasi dinamikasi,  
mln. AQSH dollari**



# Tashqi savdo

MDH davlatlari orasida Rossiya va Qozog`iston, Ukraina va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 36,4 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Germaniya, Afg`oniston, Latviya, Litva. Xindiston, va AQSH davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 43,3 foizni tashkil qildi.

## 2018 yil yanvar-sentyabr oyida Toshket shahri tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda



2018 yil yanvar-sentyabr oyida tashqi savdo aylanmasi saldosi – 3006,5 mln.AQSh dollari tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan –1205,5 mln.AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan –1800,9 mln.AQSh dollari tashkil etdi.


2018 yilning yanvar - sentyabr oyida shaharning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Eksport</b>	<b>2108,7</b>	<b>106,3</b>	<b>100,0</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	91,7	205,4	4,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	116,9	363,3	5,5
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	123,9	130,5	5,9
qora va rangli metallar	59,3	82,4	2,8
mashina va asbob-uskunalar	67,1	65,6	3,2
xizmatlar	1445,5	101,9	68,5
boshqalar	204,3	93,3	9,7
<b>Import</b>	<b>5147,0</b>	<b>118,1</b>	<b>100,0</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	673,5	120,9	13,1
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	1030,1	102,5	20,0
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	88,3	158,7	1,7
qora va rangli metallar	619,5	97,1	12,0
mashina va asbob-uskunalar	1768,2	139,5	34,4
xizmatlar	346,2	121,0	6,7
boshqalar	621,3	131,0	12,1

**Tashqi savdo** — bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan savdosi. Mamlakatdan tovarlar chiqarish (eksport) va mamlakatga tovarlar kiritish (import) dan tashkil topadi. Eksport va import yigʻindisi mamlakatning Tashqi savdo aylanmasini tashkil etadi.

Tashqi savdo aylanmasi oʻsish surʼati eng yuqori tumanlar Shayxontoxur 165,5 %, Uchtepa 162,5 %, Mirzo-Ulugʻbek 148,8 % tashkil etkan.


### Tashqi savdo aylanmasi hajmi foizda



# EKSPORT

Toshkent shahrining eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda. Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 363,8% foizga, oziq-ovqat mahsulotlari 205,4% foizga, energiya manbaalari va neft mahsulotlari 131,8 foizga o'sgan.



Eksport tarkibi, foizda



*Eksport tarkibining umumiy hajmidan 68,5 foizni xizmatlar tashkil qiladi.*




## Eksport hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda



**Eksport** (lot. — olib chiqaman, chetga chiqaraman) — tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish. Tovarlarini bir mamlakat orqali olib o‘tish (tranzit) va bir mamlakatdan olib kelingan tovarlarini boshqa mamlakatlarga sotish uchun chiqarqsh (reeksport) ham eksportga kiradi.


Eksport o‘shish sur‘ati eng yuqori tumanlar Shayxontoxur 254,6 %, Olmozor 132,5 %, Yashnobod 126,9 %, Mirzo-Ulug‘bek 102,6 % tashkil etkan.

### Eksport



# IMPORT

Import tarkibining umumiy hajmidan 34,4 % foizni mashina va asbob-uskunalar va 20,1 % foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.



■ oziq-ovqat mahsulotlari

■ energiya manbaalari va neft mahsulotlari

■ mashina va asbob-uskunalar

■ boshqalar

■ kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar


■ qora va rangli metallar

■ xizmatlar





## Import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda



Rossiya, Xitoy, Qozog`iston, Turkiya importda asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami importdagi ulushi 59,3 foizni tashkil qildi.



**Import** (ing . import — keltirish, olib kelish) — mamlakatning ichki bozorida sotish uchun, shuningdek, ularni uchinchi mamlakatga o‘tkazib yuborish uchun chet el tovarlari, xizmatlar, texnologiyalar, kapitallar, qimmatli qogozlar va boshqalar keltirish. Yuklar, passajirlarni chet eldan tashib keltirish, sayyohlik, sug‘urta, ilmiy-texnika bilimlari va boshqa xizmatlar harajatlari ham import tarkibiga kiradi.

Import o‘rinish sur‘ati eng yuqori tumanlar Uchtepa 169,8 %, Mirzo-Ulug‘bek 168,2 %, Bektemir 158,5 % ni tashkil etkan.

### import

